

**Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi hisobidan har oylik ustama to‘lanadigan nomzodlarning 2-bosqich kasbiy mahoratini baholash bo‘yicha suhbat o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi**

**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 2-avgustdagi 425-sun qaroriga muvofiq har oylik ustama to‘lanadigan nomzodlarning 2-bosqich kasbiy mahoratini baholash bo‘yicha suhbat o‘tkazish tartibi va mezonlarini belgilaydi.

2. Ushbu Nizom Maktabgacha va maktab ta’limi tizimidagi malakali pedagog kadrlarga tanlov asosida har oylik ustama to‘lash bo‘yicha (keyingi o‘rinlarda – Suhbat) o‘tkazishga nisbatan tatbiq etiladi.

3. Har oylik ustama to‘lash bo‘yicha suhbat o‘tkazish tartibi va mezonlari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘iga asosan belgilanadi.

**II. Suhbatni tashkil qilish**

4. Har oylik ustama to‘lash bo‘yicha suhbat o‘tkazish jarayoni oshkorlik, kengashib ish ko‘rish, xolislik, teng huquqlilik, shaffoflik tamoyillari asosida tashkil etiladi.

5. Suhbat o‘tkazish sanasi va joyi to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda suhbat o‘tkazish yuzasidan taxminiy savolnomalar suhbat jarayoni o‘tkazilishidan 2 hafta oldin nomzodlarga ma’lum qilinib, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining veb-sayti orqali e’lon beriladi.

6. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash uchun suhbat o‘tkazish jarayonini tashkil etishga mas’ul hisoblanadi.

7. Suhbat Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (keyingi o‘rinlarda - Universitet), Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi (keyingi o‘rinlarda - Agentlik), Universitet huzuridagi ilmiy-amaliy psixologlar markazi rahbar va xodimlaridan iborat Suhbat komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi.

8. Suhbat komissiyasi tarkibi 5 nafar a’zodan, shu jumladan, komissiya raisi, a’zolari va kotibi, jamoatchilik vakillaridan iborat bo‘ladi.

9. Universitet prorektorlari komissiya raisi hisoblanadi.

10. Suhbat jarayonlari o‘tkazilayotgan joyda komissiya a’zolari va nomzoddan tashqari begona shaxslarning bo‘lishiga ruxsat berilmaydi.

**III. Suhbatni o‘tkazish va baholash mezonlari**

11. Suhbat bosqichida Bilim va malakalarni baholash agentligi (sobiq Davlat test markazi) tomonidan umumta’lim fanini bilish darajasini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan test sinovlarida maksimal ballning 80 foizi va undan yuqori natija ko‘rsatgan nomzodlar bilan kasbiy faoliyatiga doir tayyorlangan taqdimoti bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi.

12. Har bir taqdimot uchun 10 daqiqa va savol-javob uchun 5 daqiqa ajratiladi.

13. Suhbat natijalari bo‘yicha baholash maksimal **10 ballik tizimda** mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda 2-bosqichga chiqqan hamda nomzodning kasbiy mahoratini baholash bo‘yicha suhbatdan **4 (to’rt)** balldan kam olgan nomzodlar go’liblikka tavsiya etilmaydi.

14. Suhbat bosqichida talabgor tomonidan tayyorlangan taqdimot asosida berilgan savollarga javoblar natijasida komissiya tomonidan qo‘yilgan ballar mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq maxsus shakldagi qaydnomaga qayd etiladi.

15. Agar suhbat jarayonida ikki yoki bir nechta nomzodlarning to‘plagan ballari teng bo‘lib qolsa, ballari teng bo‘lib qolgan hollarda ishtirokchilar uchun qo‘sishmcha savol beriladi va unda yuqori ball to‘plagan nomzod g‘olib deb topiladi.

16. Komissiya qarorlari uning majlisida komissiya a’zolarining yarmidan ko‘pi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

17. Suhbat o‘tkazish jarayonida nomzodlar tomonidan to‘plangan ball har bir suhbat komissiyasi a’zosining alohida qo‘ygan ballari o‘rtachasidan kelib chiqib aniqlanadi.

18. Nomzodlar Suhbat jarayonida uzrsiz sababga ko‘ra ishtirok etmagan bo‘lsa, shuningdek, nomzodlar dalolatnoma asosida suhbat jarayonidan chetlashtirilgan bo‘lsa, Suhbat komissiyasi tomonidan unga nisbatan “tanlovdan o‘tmadi” degan qaror chiqarilishi uchun asos bo‘ladi.

19. Suhbat komissiyasi **qarori bayonnomasi** shaklida mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi hamda komissiya raisi (u bo‘lmaqanda suhbat komissiyasi raisi o‘ribbosari) va kotib tomonidan imzolanadi. Bayonnomalarning asli Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida saqlanadi.

20. Suhbat komissiyasining qarori mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shakldagi **suhbat varaqasiga** qayd etiladi va komissiya raisi, uning o‘ribbosari, kotib va suhbat komissiyasi a’zolari tomonidan imzolanadi.

21. Suhbat va taqdimot jarayonlarida savollar va ularga berilgan javoblar stenografik usulda maxsus jurnalga qayd etiladi. Baholanuvchilar ularga berilgan savollar va o‘zining javoblarini jurnalga imzo qo‘yish orqali tasdiqlaydi. Nomzodlarning kasbiy mahoratini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan Suhbat jarayonlarida shaffoflikni ta’minalash maqsadida suhbat jarayoni videotasvirga olinadi.

#### **IV. Suhbat natijalarini e’lon qilish**

22. Saralash natijalariga ko‘ra har oylik ustama belgilangan pedagog kadrlar ro‘yxatini tasdiqlaydi va Jamg‘arma hisobidan ustamalarni to‘lash bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i qabul qilinadi.

23. Ustama olish huquqiga ega bo‘lgan pedagog kadrlarning ro‘yxatini saralash yakunidan so‘ng 5 ish kunida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-sahifasida e’lon qiladi.

#### **V. Suhbat natijalari yuzasidan shikoyat qilish**

24. Suhbat o‘tkazish jarayoni natijalari yuzasidan berilgan murojaatlarni ko‘rib chiqish uchun apellyatsiya tashkil etiladi. Apellyatsiya komissiyasi 5 kishidan iborat tarkibda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibiga Suhbat komissiyasi tarkibidan a’zo kiritilmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi yig‘ilishi komissiya a’zolarining uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

Suhbat komissiyasi qaroridan norozi bo‘lgan nomzodlar tanlov natijalari e’lon qilingan kundan boshlab, 48 soat mobaynida apellyatsiya komissiyasiga yozma murojaat qilishi mumkin. Bunda appelyatsiya yuzasidan murojaat qilingan sana pochta bo‘linmasining yozma murojaat qabul qilinganligi xatining konvertiga muhr bosilgan shtempeldagi sana hisoblanadi.

Nomzodlarning shikoyatlari ro‘yxatga olingan kundan boshlab, uch ish kunida ko‘rib chiqiladi hamda xabardor qilinadi.

25. Apellyatsiya komissiyasi Suhbat komissiyasining qarorini o‘zgartirishsiz qoldirish yoki uni bekor qilish haqida qaror chiqaradi.

## **VI. Yakuniy qoidalar**

26. Suhbat komissiyasi yoki apellyatsiya komissiyasi qarori ustidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sudga shikoyat qilinishi mumkin.

27. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.